

TINISH BELGILARINING USLUBIYATI

Shoymardonova Fotima

*Surxondaryo viloyati Termiz shahri Termiz davlat universiteti akademik
litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ona tili darslarida tinish belgilarini o'rgatishning samarali usullari hamda tinish belgilarining uslubiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Ona tili, uslub, tinish belgialri, tilshunoslik, nutq, yozma, punktuatsiya.*

Yozma nutq har bir shaxsning tafakkur darajasi, dunyoqarashi, til madaniyati va savodxonlik ko'rsatkichini aks ettiruvchi asosiy ifoda vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, yozuvda grammatik to'g'rilik, mantiqiy ketma-ketlik, jumla va gap bo'laklarining o'zaro bog'liqligi, ularning tiniqligi va ravonligida tinish belgilarining tutgan o'rni beqiyosdir.

Tinish belgilarining o'z o'rnida, me'yoriga muvofiq qo'llanishi nafaqat gap ma'nosini to'g'ri anglashga, balki matnning umumiy estetik ta'sirchanligiga xizmat qiladi. Shu jihatdan, maktab ta'limida, xususan, ona tili darslarida tinish belgilarini puxta o'rgatish dolzarb metodik masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Bilamizki, tinish belgialari va ularni yozma nutqda to'g'ri qo'llash yo'lyo'riqlarini o'rgatuvchi tilshunoslik bo'limi punktuatsiya deb nomlanadi. Tinish belgialari tiling sinyaktik qurilishi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Yozma nutqda to'g'ri, ifodali, aniq bayon qilishning,uning uslubiy ravonligini,tez tushunilishini ta'minlashda ham albatta tinish belgilarining o'rni judayam katta.

Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy shunday degan: "Ko'ngil mahzaning qulfi til va ul maxzanning kaildin so'z bil!". Ushbu purma'no so'zning zamirida ham albatta inson qancha bilim va boylikka ega bo'lmasin, uni so'zi, nutqi bilan ifodalab bera olmasa, bunday bilim, malakaning o'zgalarga zig'ircha ham nafi bo'lmaydi. O'zbek tilida tinish belgialari soni o'nta bo'lib har bir tinish belgisi o'zining o'rniga ega.

Nuqtaning ishlatilishi – nuqta o'zbek tilida, odatda, his- hayajonsiz aytilgan darak, buyruq gaplar, atov gaplardan so'ng qo'llaniladi. Nuqta belgisini nafaqat yozuvda balki o'g'zaki nutqimizda ham payqash mumkin. Masalan ikki do'st suhbatida tugagach yakunlovchi gaplarni bir- birlariga aytishadi. Shunda ko'rinadiki so'zilar yakunlandi va so'zlari oxirida nuqta belgisi bor. Tabiatdan olib qaraganda har bir narsaning Yamini bor va shu yakun uchun biz nuqta belgisidan foydalanamiz. Nuqta belgisiga misollar:

1. Bahor kelishini intiqlik bilan kutaman.
2. Kecha uyga borganimda oyim menga olib qo'ygan o'sha chiroyli tuflini ko'rdim.
3. Biz universitetdagi guruhdoshlarimiz bilan tog' sayliga chiqmoqchimiz.
4. Dadamni bir kishi necha martalab chaqirdi, lekin dadam uning yoniga chiqmadi.

O'zbek tilida tinish belgilarining qo'llanilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni to'g'ri ishlatish yozma nutq madaniyatining muhim qismidir. So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida tinish belgilariga oid tadqiqotlar ko'paygan bo'lsada, bu sohada hal etilishi lozim bo'lgan masalalar hamon mavjud. Ayniqsa, globallashuv davrida axborot oqimining tezlashuvi va yozma nutqning keng tarqalishi tinish belgilariga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

Tinish belgilarining funksional vazifalari: ▪

Sintaktik vazifasi Tinish belgilarining asosiy vazifalaridan biri – sintaktik vazifa, ya'ni matnda gaplarning tuzilishi va ularning bir-biriga bo'lgan grammatik munosabatlarini belgilashdir. Tinish belgilar yordamida gaplarning chegarasi, bo'laklarning o'zaro bog'liqligi va ularning izchil oqimi ifodalanadi. Masalan, murakkab gaplar tarkibidagi sodda gaplarni vergul yoki nuqtali vergul yordamida ajratish orqali o'quvchi fikr oqimini aniq anglay oladi.

Mantiqiy va semantik vazifasi Tinish belgilarning matndagi mantiqiy bog'liqlikni belgilashda ham katta rol o'ynaydi. Gaplar orasidagi sabab-oqibat, qarama-qarshilik, izohlilik kabi semantik munosabatlar tinish belgilar orqali oson tushuniladi. Masalan, "lekin", "ammo", "shuning uchun" kabi bog'lovchilar qatnashgan gaplarda vergul qo'yilishi bu fikrlar orasidagi mantiqiy aloqani yanada ravshanlashtiradi.

Emotsional-intonatsion vazifasi Og'zaki nutqda his-tuyg'ular ohang, pauza va urg'ular orqali ifodalanadi. Yozma nutqda esa bu vazifani tinish belgilari bajaradi. Undov belgisi (!), so'roq belgisi (?), ikki nuqta (:), qo'shtirnoq ("") kabi belgilar matnga emotsional va ekspressiv tus bag'ishlaydi. Ular yordamida o'quvchi matn ohangini sezadi, muallifning munosabatini tushunadi.

O'zbek tilida tinish belgilaridan foydalanish shunchalar qulayki xattoki bazida bir gapning ichida bir necha tinish belgilaridan foydalanish mumkin. Ikki nuqta va nuqtali Vergil ham o'zlarining muhim juhatlariga ega.

Ikki nuqta shaklan tugallangan ammo mazmunan tugallanmagan keyingi gap yoki so'z birinchisining uzviy davomi sanalgan bog'lovchisiz muallif gaplarida, shuningdek, ko'chirma gapdan oldin kelgan muallif gapi, uyishiq bo'laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan keyin kelgan gaplarda foydalaniladi. Maslan: Yigirmanchi asirning boshlarida ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy: "Ilm biza o'z ahvolumizni, harokatimizni oyina kabi ko'rsatur.

Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkur qilur", -deb yozgan edi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar mazmunan tugal fikirni anglatib, bir- biriga yaqin bo'lmagan hollarda bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibiga Morgan sodda gaplardagi voqealar bir- biriga qiyoslanganda, uyushiq bo'laklar guruhlanib, o'zaro vergullar yordamida bir birlaridan ajratilganda nuqtali verguldan foydalanamiz. Masalan: Foydali so'z go'dakdan chiqsa ham quloq sol; yomon so'z mo'ysafiddan chiqsa ham eshitma. Har qanday xazinaning kaliti bilimdir; bilim ila dunyo kezsa bo'lur, do'st orttirsas bo'lur.

Xulosa qilib aytganda har bir narsaning hayotimizda o'z o'rnini bo'lganidek, so'zlarimiz, nafaqat nutqimizda balki yozuvda aks etganda ham chiroyli, tartibli va ta'sirchan, ifodali bo'lishi uchun tinish belgilarini o'z o'rnida qo'llashni bilishimiz joiz. Zero yaxshi so'z jon o'ziga – yomon so'z bosh qozig'idir.

Tinash belgilarining to'g'ri qo'llanishi yozma nutqning grammatik, mantiqiy va stilistik yaxlitligiga xizmat qiladi. Maktab ta'limida, xususan, ona tili darslarida ushbu belgilarni to'g'ri va mukammal o'rgatish o'quvchilarning savodxonligini oshirishda hal qiluvchi omildir.

Maqola davomida olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar quyidagi xulosalarni beradi: Tinash belgilarining ayrim turlari, jumladan, nuqta, so'roq va undov belgilarini o'quvchilar yaxshi o'zlashtirgan bo'lsa-da, vergul, nuqtali vergul, qo'shtirnoq va qavs belgilarida xatolar soni yuqori. O'qitish jarayonida nazariy tushunchalarni mustahkamlovchi amaliy topshiriqlar yetarli bo'lmayapti.

Har bir tinash belgisi bilan alohida ishlash, kontekstda qo'llanishni o'rgatish lozim.

Ona tili darslarida o'quvchilarning yozma ishlari tahlil qilinib, xatolar ustida tizimli ishlash tajribasini keng joriy qilish kerak. Darslik va metodik qo'llanmalarda tinash belgilariga oid mashqlarni zamonaviy, kontekstual asosda takomillashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N., Jo'rayev A. — O'zbek tili: nazariy va amaliy kurs — Toshkent: O'zbekiston, 2022. — 122-bet.
2. Xolboyeva R. — Ona tili o'qitish metodikasi — Toshkent: O'qituvchi, 2010. — 94–103-betlar.
3. Rasulov A. — Tilshunoslikka kirish — Toshkent: Fan, 2006. — 66-bet.
4. Karimov M. — Yozma nutqni o'rgatish usullari — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. — 134–140-betlar.
5. Qodirova G. — O'zbek tili darslarida metodik yangilanishlar — Samarqand: Zarafshon, 2018. — 75–80-betlar